



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI HUZURIDAGI YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI

O'ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI MARKAZIY KENGASHINING QARORI

Umumiy o'rta ta'lismuassasalarida yoshlar bilan ishslash samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi "Mahallalarda yoshlar bilan ishslash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-92-son qarori ijrosini ta'minlash hamda "Kamalak" bolalar tashkiloti faoliyatini qo'llab-quvvatlash, o'quvchi-yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi hamda O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi **qaror qiladi**:

1. Umumiy o'rta ta'lismaktablarida direktorning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari (keyingi o'rinnlarda – direktor o'rinbosari) yoshlar masalalarida idoralararo hamkorlik va mahallalardagi yoshlar yetakchilari faoliyatiga ko'maklashadi.

2. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq:

umumiy o'rta ta'lismaktablarida tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etgan respublika bo'yicha 200 nafargacha direktor o'rinbosari har chorakda (bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravarigacha) Yoshlar ishlari agentligining Yoshlarga oid davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan rag'batlantirib boriladi;

direktor o'rinbosari umumiy o'rta ta'lismaktablari direktori hamda tuman (shahar) yoshlar ishlari bo'limi boshlig'i lavozimlariga tavsiya etiladi.

3. **Quyidagilar:**

direktor o'rinbosari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha hududiy ishchi guruhning namunaviy tarkibi **1- ilovaga** muvofiq;

umumiy o'rta ta'lismaktablarida o'quvchilar o'rtasida tashkil etiladigan tadbirlar rejasiga **2- ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari direktori o‘rinbosari lavozimiga qo‘srimcha vazifalar sifatida quyidagilar kiritilsin:

Ta’lim muassasalari yoshlarining ma’naviyatini yuksaltirish va bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha Prezidentning besh muhim tashabbusi doirasida tanlov va tadbirlarni tashkil etish, to‘graraklar faoliyatini muvofiqlashtirish;

4-11-sinf o‘quvchilari o‘rtasida “Kamalak” va “Yoshlar ittifoqi” sardorlari faoliyati haqida targ‘ibot ishlarini olib borish;

o‘quvchilar orasidan faol, tashabbuskor, liderlik qobiliyatiga ega bo‘lgan bolalarni sardorlikka tayyorlash maqsadida yilning sentyabr oyi ikkinchi o‘n kunligida 4-7-sinflarda har bir sinfdan 1 nafardan sinf “Kamalak” sardori”, 8-11-sinflarda 1 nafardan sinf “Yoshlar ittifoqi” sardori” saylovini tashkil etish;

uchinchi o‘n kunligida 4-11-sinf o‘quvchilaridan, tarkibi 14 kishidan iborat “Maktab sardorlari kengashi” saylovini tashkil etish;

o‘quv yili davomida sardorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash;

mahalla yoshlar yetakchisi bilan hamkorlikda maktablarda “Yoshlar daftari”da yaratilgan imkoniyatlar to‘g‘risidagi targ‘ibot ishlarini tashkil etish;

ushbu qarorning 2-ilovasida belgilangan tadbirlarning maktab bosqichini tashkil etish va g‘olib bo‘lgan o‘quvchilarning tuman (shahar) bosqichida ishtirokini ta’minlash.

5. Belgilab qo‘yilsinki:

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi maktab direktori o‘rinbosariga yuklatilgan qo‘srimcha vazifalarning amalga oshirilishini nazorat qiladi;

mazkur qarorning 2-ilovasida belgilangan tadbirlarning maktablarda sifatlari o‘tkazilishi uchun Tuman (shahar) yoshlar ishlari bo‘limlari boshliqlari shaxsan javobgar hisoblanadi.

6. Hududiy ishchi guruhga:

direktor o‘rinbosari faoliyati samaradorligini oshirish va takomillashtirish bo‘yicha uslubiy hamda amaliy ko‘mak berib borish;

tashabbuskor, islohotlarni amalga oshirishda haqiqiy jonbozlik ko‘rsatgan har tomonlama munosib direktor o‘rinbosarini davlat mukofotlariga tavsiya etish vazifalari yuklatilsin.

7. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, Yoshlar ishlari agentligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar yoshlar ishlari boshqarmalari hamda O‘zbekiston yoshlar ittifoqining hududiy Kengashlari birgalikda:

direktor o‘rinbosari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha hududiy ishchi guruhlar faoliyatini yo‘lga qo‘ysin hamda uning samarali faoliyat olib borishini ta’minasin;

2023-2024-o'quv yilida har bir tuman (shahar) miqyosida 1 ta mактабда direktor o'rнbosari faoliyatini namunali yo'lga qo'y sin va ularning tajribasini boshqa umumiyl o'rta ta'lim muassasalarida ommalashtirsin;

umumiyl o'rta ta'lim maktablarida tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etgan direktor o'rнbosarlarini har chorakda rag'batlantirish choralarini ko'rsin;

direktor o'rнbosarini sohaga doir so'nggi islohotlardan tezkorlik bilan xabardor qilsin hamda qo'shimcha materiallar (video, audio, bosma va elektron shakllarda) bilan ta'minlab borsin.

8. Yoshlar ishlari agentligi direktor o'rнbosarlarini rag'batlantirish bilan bog'liq mablag'larni Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar yoshlar ishlari boshqarmalarining asoslantirilgan so'roviga muvofiq, hududiy Yoshlarga oid davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armalariga o'tkazib borsin.

9. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Maktabgacha va mактab ta'limi vaziri o'rнbosari D.Kenjayev, Yoshlar ishlari agentligi direktori o'rнbosari D.Kattaxanova, O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi raisi o'rнbosari M.Baratova zimmalariga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va mактab ta'limi
vaziri o'rнbosari**

Toshkent sh.,
2023-yil "3"-may,
15-18-son



D.Kenjayev

**O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar siyosati va sport vazirligi
huzuridagi Yoshlar ishlari
agentligi direktori**

Toshkent sh.,
2023-yil "3"-may,
01-02/06-son



A.Sa'dullayev

**O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi raisi v.v.b.**



T.Poyonov

Toshkent sh.,
2023-yil "3"-may,
4-QQ-son

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha
va maktab ta’limi vazirligi, Yoshlar ishlari
agentligi, O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi markazi
kengashining 2023-yil 3 - may dagi
15/4/2023-sonli qo‘shma qaroriga
1-ILOVA

**Umumiy o‘rtta ta’lim maktablarida direktorning
ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari faoliyatini muvofiqlashtirish
bo‘yicha hududiy ishchi guruhning
NAMUNAVIY TARKIBI**

- (lavozimga ko‘ra) - Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari, *Ishchi guruh rahbari o‘rinbosari*
- (lavozimga ko‘ra) - Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar yoshlar ishlari boshqarmalari boshliqlari, *Ishchi guruh rahbari o‘rinbosari*
- (lavozimga ko‘ra) - O‘zbekiston yoshlar ittifoqining hududiy Kengashlari raislari, *a’zo*
- (lavozimga ko‘ra) - Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlarining tarbiyaviy ishlar va ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha o‘rinbosarlari, *a’zo*
- (lavozimga ko‘ra) - Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar yoshlar ishlari boshqarmalari Ta’lim muassasalarida yoshlar bilan ishslash va volontyorlik faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha bosh mutaxassislari
- (lavozimga ko‘ra) - Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi “Barkamol avlod” bolalar maktabi direktorlari, *a’zo*
- (lavozimga ko‘ra) Hududiy “Kamalak” bolalar tashkiloti bosh mutaxassis, *a’zo*
- (lavozimga ko‘ra) - Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari Ta’lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish sho‘basi mudirlari, *Ishchi guruh kotibi*

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha
va maktab ta’limi vazirligi, Yoshlar ishlari
agentligi, O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi markaziy
kengashining 2023-yil 3 - moy dagi
15-16/10-07/06/4-0/0-sonli qo‘shma qaroriga
2-ILOVA

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilar o‘rtasida tashkil etiladigan TADBIRLAR REJASI

t/r	Tadbir nomi	Amalga oshirish muddati
1.	Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida sinf, maktab “ Sardorlar Kengashi a’zolari saylovi ”ni tashkil etish.	Sentabr oyining ikkinchi o‘n kunligi
2.	Sinflarda “ Kamalak ” partalarini tashkil etish.	O‘quv yili davomida
3.	O‘quvchilar o‘rtasida “ Zakovat ” intellektual o‘yinini o‘tkazish.	Sentabr
4.	Umumta’lim maktablarida “ Zakovat ” to‘garaklarini tashkil etish.	O‘quv yili davomida
5.	Umumta’lim maktablari o‘quvchilari o‘rtasida “ Besh tashabbus olimpiadasi ”ni o‘tkazish.	Sentabr
6.	“ Kamalak ” bilimdonlari” tanlovlarinining maktab bosqichini tashkil etish.	Yanvar
7.	Umumta’lim maktab o‘quvchilari o‘rtasida “ Yoshlar stipendiyasi ” tanlovini targ‘ib qilish va o‘tkazish.	O‘quv yili davomida
8.	Iqtidorli o‘quvchilar (jumladan ijtimoiy himoyaga muhtoj)ni kasb-hunarga yo‘naltirish, ularni jamoada ishslashga o‘rgatishga qaratilgan “ A’lo ta’til ” loyihasini targ‘ib qilish.	O‘quv yili davomida
9.	Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan kunduzgi sog‘lomlashtrish oromgohlarida “ Yozni “Kamalak” bilan! ” loyihasini amalga oshirish.	Iyun-iyul

Izoh: Ushbu tadbirlardan tashqari umumiy o‘rta ta’lim maktablarida Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan reja asosida turli tadbirlar (ko‘rik-tanlov, musobaqa, festivallar, ko‘rgazmalar) ham tashkil etiladi.

Shuningdek, tadbirlar rejasida belgilangan tadbirlar va ularning muddatlariga Hududiy ishchi guruuhlar tomonidan qo‘srimcha va o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin.